

"ILM YO'LI" VARIATIV DASTURIY TA'MINOTI ORQALI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORLASHNING METODIK TIZIMI

Abdullayeva Dilfuza Sobir qizi

O'zbekiston Finlandiya

pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: maktabgacha ta'lim davrida bolalarning intellektual, emosional va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan dasturiy ta'minotlar, ularning o'qish va o'rganish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumot beriladi. "Ilm yo'li" dasturiy ta'minoti, shuningdek, o'qituvchilarga talabalar bilan ishlashning yangi usullarini taqdim etadi va o'qitish jarayonini tomma-tomma qanday qilib yanada samarali qilish mumkinligini ko'rsatadi. O'qituvchilar uchun iyun va yozgi ta'til davomida o'zingizni rivojlantirish va yangi yondoshuvlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: ilm yo'li, maktab ta'limi, metodik tizim, sifatli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, individual yondashuv, interaktiv shakllar, rivojlanish, ta'lim jarayoni, pedagogik metodlar.

Аннотация: представлена информация о программном обеспечении, которое важно для интеллектуального, эмоционального и социального развития детей в дошкольном образовании, о том, как оно влияет на их процессы чтения и обучения. Программное обеспечение «li» также предоставляет учителям новые способы работы с учениками и показывает, как это работает. процесс обучения можно сделать шаг за шагом более эффективным. Это создает возможности для учителей развиваться и изучать новые подходы во время июньских и летних каникул.

Ключевые слова: научный путь, школьное образование, методическая система, качество образования, инновационные технологии, индивидуальный

подход, интерактивные формы, развитие, образовательный процесс, педагогические методы.

Abstract: information is provided about the software that is important for the intellectual, emotional and social development of children in preschool education, how it affects their reading and learning processes. It also provides teachers with new ways to work with students and shows how the teaching process can be made step by step more effective. It creates opportunities for teachers to develop themselves and learn new approaches during the June and summer holidays.

Key words: science path, school education, methodological system, quality education, innovative technologies, individual approach, interactive forms, development, educational process, pedagogical methods.

Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari kiritildi. Dastur (kurrikulum)ning o'rgatuvchi jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta'limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi. 6-7 yoshli bolalarni o'qitish majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim sektori rejasi, maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo'naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi: • katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi; • maktabgacha ta'limga sarf-xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda); • umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar; • ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi; • g'ayriaxloqiy va jinoiy

xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida, "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur", maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi. "Ilm yo'li" variativ dasturi bolaning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo'lib sanaladi. Mazkur dastur o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, o'quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizniva variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi. • bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo'lgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tiplardagi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun pedagog-kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta'limning muqobil shakllari xududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o'z muqobil shakllarini ishlab chiqishi mumkin. Dastur asosiga bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari kiritildi. Dastur (kurrikulum)ning

o'rgatuvchi jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi.

"Ilm yo'li" dasturiy ta'minoti, innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga olgan holda, o'quv jarayonida interaktiv shakllarni taqdim etadi. Bu esa bolalarga o'rganish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi va ta'lim motivatsiyasini oshiradi. Dastur, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlangan o'quv materiallarini taqdim etadi. Ushbu dasturiy ta'minotning metodik tizimi bir nechta asosiy elementlardan iborat:

- Pedagogik metodlar: o'qituvchilar uchun turli xil pedagogik usullar va yondashuvlar, masalan, loyihaga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'qish, problemali o'qitish va boshqa innovatsion usullarni taklif etadi.

- O'quv jarayoni: o'quvchilarni faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv shakllar va materiallar yordamida o'quv jarayonini tashkil etadi.

- O'lchov va natijalar: ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni o'lchash va tahlil qilish uchun metodologiyalar taqdim etadi. "Ilm yo'li" dasturiy ta'minoti bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Dastur, bolalarga ta'lim olish jarayonida o'zlarini erkin his qilishlariga yordam beradigan muhit yaratadi. Shuningdek, u, ular uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, "Ilm yo'li" variativ dasturiy ta'minoti bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Uning metodik tizimi o'qituvchi va o'quvchilarning faol aloqasini ta'minlab, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ta'limdagi bu yondashuv, kelajak avlodlarni sifatli bilim bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. M. Berdiyeva, S Bo'Ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari - Science and Education, 2021 - cyberleninka.ru.

2. В.Р.Джурыева, Н.М.Тожибоева, Г.М.Назирова “Мақтабгача та’лим yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil, 198-bet.
3. Kamilova G. Maqtabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ
4. (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Olimovna K. G. The importance of the criteria of pedagogical technologies at training highly qualified personnel //Достижения науки и образования. – 2017. – №.
6. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
7. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2132/2027/6822>
9. <https://www.collegesidekick.com/study-docs/1708602>